

TILSHUNOSLIKDA ANTROPOTSENTRIK TAHLILLAR

Jabbarova Yulduz Xujamuradovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali ingliz tili fani o'qituvchisi
yulduzhan1806@gmail.com

АННОТАЦИЯ: *Mazkur maqolada tilshunoslarning tilni milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analar bilan bog'liq jihatlari haqida ayrim fikrlar bildirilgan va tahlil etilgan, ularni mulohazalari "Qarindoshlik" munosabatlari doirasida tadqiq qilinishi o'rganilgan.*

Калит so'zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, tahlillar, antropotsentrik, leksik birliklar, biologik, milliy xarakter, qarindoshlik munosabatlari, madaniy, ijtimoiy qadriyat, muhim ramzlar.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье высказаны и проанализированы некоторые мнения лингвистов об аспектах языка, связанных с национальным характером, обычаями, ценностями и традициями, а также изучено, что их мнения исследуются в рамках «Родственных» отношений.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, анализ, антропоцентризм, лексические единицы, биологические, культурно-географические, антропологи, национальный характер, родственные отношения, культурная, социальная ценность, важные символы.*

ANNOTATION: *This article expresses and analyzes some of the opinions of linguists about aspects of language related to national character, customs, values and traditions, and also studies that their opinions are examined within the framework of "kinship" relationships.*

Key words: *linguoculturology, analysis, anthropocentrism, lexical units, biological, cultural-geographical, anthropologists, national character, family relations, cultural, social value, important symbols.*

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta’sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o‘rganuvchi sohadir. XXI asrning dastlabki yillaridan o‘zbek tilshunosligida ham antropotsentrik tahlil ko‘rinishlarini namoyon qiluvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalari bo‘yicha bajarildi. Mazkur tadqiqotlar, garchi ularda antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo‘lsa-da, o‘zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hisoblanadi. Shuningdek, ularda tilimizning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an‘analarimiz bilan bog‘liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvomadaniyatshunoslik nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin. Jumladan, professor Sh.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan “Kognitiv tilshunoslik” nomli monografiyasi ayni sohaga oid nazariy qarashlarning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo‘ldi. Kitobning ustuvor jihatlaridan biri shundaki, unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan bog‘liq ekanligiga alohida e’tibor qaratilgan. Sh.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: “Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur aloqasini “teng huquqli hamkorlik” darajasida ko‘rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta’sir o‘tkazadigan madaniyatdir”. Olimning “Semantika” nomli monografiyasida lingvokulturologiya, xususan, lingvomadaniy konseptga doir nazariy qarashlar yanada keng talqin etilgan [Safarov. 2006; Safarov. 2013]. S.M.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining

ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbeklarning o‘ziga xos muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari xususidagi qarashlar ham o‘rin olganki, buni til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. S.M.Mo‘minov, jumladan, shunday yozadi: “Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o‘ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an’analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o‘rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir” [Mo‘minov. 2000]. N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berilgan [Mahmudov. 2012]. Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova bu borada o‘zining “Matnning antropotsentrik tadqiqi” nomli monografiyasini yaratdi va ushbu asar orqali olim o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganishni ochib berdi [Xudoyberganova. 2013]. Qarindoshlikni o‘rganishga ramziy yondashuv hozirgi kunda ijtimoiy fanlarda qarindoshlik tadqiqotlari rivojlanayotgan metodologik asosdir. Qarindoshlik munosabatlarini ramziy tahlil qilish g‘oyasi, yuqorida ta’kidlanganidek, XX asrning 70-yillarida D. Shnayder tomonidan ilgari surilgan, u qarindoshlikni madaniy ramzlar tizimi sifatida o‘rganish zarur degan fikrni olg‘a surgan [Schneider. 1980]. Shu tariqa D.Shnayder o‘sha davr antropologiyasi uchun muhim bo‘lgan relyativistik g‘oyani ifoda etdi – “qarindoshlik kabi (qat’iy, universal) narsa yo‘q”, ammo turli madaniyatlarda qarindoshlikni anglatuvchi ma’nolar mavjud. Shnayder o‘zining “Amerikacha qarindoshlik” asarida bir vaqtning o‘zida zamonaviy qarindoshlik tadqiqotlarini tanqid qiladi hamda madaniyat ramzlari va madaniy antropologiya tushunchasini rivojlantiradi [Wilson. 2016: 574]. Masalaning ushbu tarzda qo‘yilishi qarindoshlikning madaniy o‘ziga xos ekanligi, ya’ni ushbu kategoriyaning turli madaniyatlarda turlicha tushunilishi mumkin ekanligini anglatadi. Aynan ramziy yondashuv doirasida “qarindoshlik”ning oddiy tushunchasi muammoga ega kategoriya ko‘rinishini olib, qarindoshlik tabiati haqida davom etayotgan bahs-

munozaralarga asoslangan alohida tadqiqot mavzusiga aylandi. Agar XX asrning 70-yillariga qadar qarindoshlikning biologik va ijtimoiy darajalarining o'zaro aloqalariga asoslangan munosabatlar tizimi sifatida universal ta'rifi mavjud bo'lgan bo'lsa, va birinchisi, ya'ni biologik darajasi asosiy deb hisoblangan bo'lsa, XX asrning oxirgi choragida qarindoshlikning madaniy jihatdan o'ziga xos kategoriya sifatida e'tirof etilishi tufayli, bunday ta'rifning universalligi va, avvalambor, qarindoshlikning asosi sifatida biologik bog'liqlikning barcha madaniyatlarga tegishli ekanligi shubha ostiga olindi. Bunday yondashuv qarindoshlikni yangi, biologiya bilan bog'liq bo'lmagan asoslar orqali qayta ko'rib chiqish va qayta ta'riflashning boshlanishini belgilab berdi. Shunday qilib, qarindoshlikni madaniy jihatdan o'ziga xos ma'nolar tizimi sifatida ramziy tadqiq etish qarindoshlik munosabatlari o'zaro ta'sirlar jarayonida yaratiladi va tug'ilish fakti bilan belgilanmaydi qabilidagi qarindoshlikning ijtimoiy-konstruktivistik nuqtai nazarini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. D.Shnayder uchun qarindoshlik munosabatlarini o'rganishga ramziy yondashuvning asosiy tushunchalaridan biri bu "madaniy tizim" kategoriyasidir. Qarindoshlik tadqiqotlarini olib borgan D.Shnayder, T.Parsonsga ergashgan holda, muhim ramzlarni o'z ichiga olgan madaniy tizim va real xulq-atvor normalarni o'z ichiga olgan ijtimoiy tizimni ajratadi. Ularning birinchisi uning tadqiqot mavzusiga aylanadi va muallif qarindoshlik ramzlarini o'rganish uchun amaldagi qarindoshlikka murojaat qilishning zarur emasligini alohida ta'kidlaydi.

"Ramzlar" – ushbu yondashuvdagi yana bir muhim tushuncha hisoblanadi. Har bir madaniyat qarindoshlik aloqalarini ifodalash uchun o'z ramzlarini yaratadi. Masalan, qarindoshlik haqidagi amerikacha tushunchalar "oila", "uy", "qon", "sevgi", "nikoh" (Schneider. 1980) kategoriyalarini o'z ichiga olsa, bu tushuncha malay xalqi uchun "uy", "o'choq", "boqish", "qondosh aka-uka munosabatlari", "ayollar" (Karsten. 1995) kabi kategoriyalarda zohirlanadi. Bundan tashqari, har ikkala holatda ham bu belgilar tizimni tashkil qiladi, ya'ni ular o'zaro bog'liqdir. Ramzlarni o'rganishdan tashqari, qarindoshlikning ramziy tahlili qarindoshlik atamalarining madaniy xususiyatlariga oid izlanishlarda ham o'z ifodasini topgan, ya'ni qarindosh bo'lish

(Alexander. 1976, Schneider. 1980), qon-qardosh bo'lish (Marshall. 1977, Siblingship in Oceania. 1981), amakivachcha yoki xolavachcha (Baumann. 2001) bo'lish turli madaniyatlarda nimani anglatishi yoritib berilgan. Mualliflar misol tariqasida "xola" kategoriyasini biror madaniyatda o'rganish, ushbu tushunchani amaliyot orqali, ya'ni o'rganilayotgan madaniyatda "xola" deya ta'riflangan shaxslarning xola sifatida qanday vazifalarni bajarishlari orqali ko'rib chiqishni taklif qilishadi. "Xola" konsepti ushbu kategoriyadagi shaxsni aniqlashda tanlov mavjudligini tahlil qilishdan ozod qilinadi. Tadqiqotchilar xolalarning oilaviy tarmoqdagi rollariga alohida e'tibor berishadi, masalan, jiyanlari uchun "yo'l boshchi" yoki "ikkinchi ona" kabi umumiy rollarni bajarishlari ta'kidlanadi. Xolalar ko'pincha ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda vositachi, shuningdek, oilaviy uchrashuvlarni tashkil qiluvchilar sifatida harakat qilishadi. Xolalar va jiyanlar o'rtasidagi munosabatlar esa yaqin muloqot davri yoki uzoq vaqt ajralish holatlari sababli hayot davomida o'zgarib turishi mumkin. Amerika madaniyatida "xola" atamasi unga nasab jihatidan ham, xulq-atvori jihatidan ham mos keladiganlar uchun amal qilishi mumkin, ya'ni uzoq qarindoshlar, do'stlar yoki qo'shnilar ma'lum darajada yaqin qarindoshlar doirasiga kiritilishi mumkin. Xuddi shunday misolni E.Bauer ham keltirib o'tadi, Buyuk Britaniyada ma'lum qiyinchiliklarni birga boshidan o'tqazgan biror bir dugonasi ayol kishi uchun opa yoki singil, uning bolalari uchun esa *xola* sifatida qabul qilinishi mumkin [Bauer. 2010: 79-107]. Qarindoshlik bo'yicha hozirgi davrda yaratilayotgan ilmiy ishlarning asosiy mavzusi qarindoshlikni tashkil etadigan madaniy va geografik jihatdan uzoq jamiyatlarning odatiy tadqiqot maydonidan tadqiqotchi uchun madaniy va geografik jihatdan yaqin bo'lgan jamiyatlarni tahlil qiladigan ishlarga o'tkazildi. "Qarindoshlik" tushunchasi uchun aniq ta'riflarning yo'qligi tadqiqot maydonini ham tavsiflaydi: qarindoshlikning alohida individual amaliyoti va turlarini turli materiallarda etarlicha batafsil tavsiflash mumkin, ammo tadqiqotchi qarindoshlik orqali nimani tushunishini ko'rsata olmaydi. G.V.Dzibel bu fikrni juda aniq ifoda etib, "qarindoshlik antropologiyasida hukm surayotgan betartiblikning asosiy sababi, bu hodisani

tushunishni faqat ma'lum bir intellektual "birodarlik"ka tegishli bo'lgan masala qilib qo'yilgani va aslida uning umumiy ilmiy tavsifining tizimlilikini inkor qiladigan antropologlar orasida qarindoshlik mohiyatini aniq tushunmaslik, ijtimoiy qadriyat sifatida qarindoshlikning chuqur tajribasi bilan bog'liqligi, ya'ni insonning mavjudligi real hayot bilan bog'liqligini mutaxassis sifatida to'g'ri ta'riflamasliklaridadir", deydi [Dzibel. 2001: 69-70]. Sotsiologiya va ijtimoiy antropologiya sohasida qarindoshlik munosabatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar ham ushbu tadqiqot sohalari rivojlanishida umumiylik bor ekanligini ta'kidlaydilar. Ijtimoiy antropologiyada XX asrning o'rtalariga qadar qarindoshlik tadqiqotlarining etakchilik qilib kelishi, 70-80 yillarga kelib esa inqiroz va asosan, Devid Shnayder [Schneider. 1980, 1968, 1984] tomonidan olib borilgan izlanishlar tufayli bu mavzuning ma'lum ta'qiqlarga uchrashi, ammo gender munosabatlari, yangi reproduktiv texnologiyalar, migratsiya, shaxsiyat kabi bir qator tegishli sohalarda olib borilgan tadqiqotlar tufayli 90-yillarga kelib yana qarindoshlik mavzusiga qiziqishning tiklanishi qayd etiladi. Shunday qilib, qarindoshlik tadqiqotlari 70-yillarga qadar faol rivojlangan, keyin u bir muncha vaqt unutilgan va 90-yillarda yangi ko'rinishda qayta tiklangan deb taxmin qilinadi. "Yangi ko'rinishda" deyish orqali 80-90-yillardan boshlangan qarindoshlikni o'rganish oldingi tadqiqotlarning davomi emasligi va bu nafaqat o'zgarishlarni anglatibgina qolmay, balki munosabatlar shakllari, ular haqida fikr yuritishning yangi mantiqqa asoslanganligi sababli uni "yangi qarindoshlik" deb atash mumkinligi nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Сафаров С.Ш. Семантика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2013. – 344 б.
- 2.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик, - Жиззах: Сангзор, 2006. - 91 б.
- 3.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ... дисс. автореф. –Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2000. – 47 б.
- 4.Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
- 5.Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -137 б.
- 6.Wilson, R. A. (2016) Kinship past, kinship present: Bio-essentialism in the study of kinship. *American Anthropologist*, vol. 118, issue 3, pp. 570–584.
- 7.Dziebel G. V. The Genius of Kinship: The Phenomenon of Human Kinship and the Global Diversity of Kinship Terminologies. -NY: Cambria Press, 2007. –568 p.
- 8.IRRIGATION STRUCTURES IN KASHKADARYO OASIS IX Jabborova НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ..., 2021
- 9.Meliorative Condition Of Land In The Oasis Of Kashkadarya In The 50s Of The 20th Century II Khujamuratovna *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research Issn ...*, 2022
- 10.Contributions of Irrigators Yekaterina Isaakovna Friesen and Somova Nina Nikolaevna to the Development of Kashkadarya Water Management II Khujamuratovna *Miasto Przyszłości* 30, 18-20, 2022
- 11.Study of irrigation history of the kashkadarya oasis II Xujamurotovna *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24 (6), 3047-3051, 2020
- 12.ЎЗБЕКИСТОН СУҒОРИШ ТАРИХИНИНГЗАХМАТКАШ ТАДҚИҚОТЧИСИ ВА ЗУККО МЕЪМОРИ И. Х ЖАББОРОВА *Uzbek Conference Publishing Hub* 1 (01), 54-58, 2021
- 13.QASHQADARYO IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI TARIXSHUNOSLIGI I Jabbarova *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 3 (6), 130-134, 2023
- 14.SOURCES RELATED TO THE HISTORY OF THE IRRIGATION CONSTRUCTION OF THE KASHKADARYA OAZIS II Khujamuratovna *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...*, 2023
- 15.OSIYO ARSLONINING QULASHI Z Amirova, I Jabbarova *Инновационные исследования в науке* 3 (1), 141-150, 2024

- 16.O 'ZBEK JANGCHILARINING IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI JASORATLARI M Shonazarov, I Jabbarova Solution of social problems in management and economy 2 (13), 160-167, 2023
- 17.SALJUQIYLAR IMPERIYASI–TARIXDAGI BUYUK DAVLAT K Safarov, I Jabbarova Models and methods in modern science 2 (13), 149-155, 2023
- 18.HISTORY OF CONSTRUCTION OF PACHKAMAR WATER RESERVOIR I Jabbarova Академические исследования в современной науке 2 (27), 64-70, 2023
- 19.BERUNIYNING HINDISTON ASARI N Bobomurodova, I Jabbarova Международная конференция академических наук 3 (1), 103-107, 2024
- 20.TURK XOQONLIGI HARBIY SAN'ATI A. Q Nurmanov, I Jabbarova Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2 (22), 32-40, 2023
- 21.AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI VA TAKTIKALARI M Shonazarov, I Jabbarova Current approaches and new research in modern sciences 3 (7), 55-64, 2024
- 22.HISTORY OF CONSTRUCTION OF RESERVOIRS WITHIN THE FRAMEWORK OF AGRICULTURAL POLICY OF THE SOVIET STATE IN THE KASHKADARYA OASIS I Jabbarova, I Qodirov Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 4 (1), 47-49, 2024
- 23.Qashqadaryo vohasi sugorma dehqonchiligini xorijiy olimlar timinidan urganilishi I Jabbarova Look at the past, 2020
- 24.ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal I Jabbarova ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, 2020
- 25.STUDY OF IRRIGATION HISTORY OF THE KASHKADARYA OASIS I Jabbarova International journal of psychosocial rehabilitation, 2019